

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOATLASHUVNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	9
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
ALIGNING NATIONAL AND INTERNATIONAL UNIVERSITY RANKING INDICATORS: A CROSSWALK METHODOLOGY.....	16
Mamajonova Mukhlisakhon Muzaffar kizi	
O'ZBEKISTONDA ENERGETIKA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	28
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARUVNI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH	34
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li	
SANOAT KORXONASINING ATROF-MUHIT VA AHOLI SOG'LIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	40
Imomnazarov Farrux Saibjabbor o'g'li	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY HOLATI VA TAHLILI	44
Abdiraxmonov Farxod Arabboyevich	
MACHINE LEARNING-ASSISTED PREDICTION OF FIRE-RETARDANT AND PRESERVATIVE PERFORMANCE OF CHEMICALLY MODIFIED WOOD: AN ECO-FRIENDLY APPROACH.....	52
Usmanova Maftunakhon Abror qizi	
TEMIR YO'L AVTOMATIKA VA TELEMEXANIKA MAYDON QURILMALARINI MASOFAVIY NAZORAT QILISH ISHONCHLILIGINI UYALI ALOQA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH.....	60
Botirov Abdulaziz Temir o'g'li	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'IDA NOL STAVKANI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	66
A.A. Bobomurodov	

QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'IDA NOL STAVKANI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

A.A. Bobomurodov

O'zbekiston Respublikasi Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: abdurasulbobomurodov05@gmail.com

Annotatsiya: Hukumatlar faoliyati yildan-yilga raqamlashtirilib, davlat boshqaruvi tizimida elektron xizmatlar ko'lami kengayib bormoqda. Hozirgi kunda deyarli barcha davlat organlari, jumladan, soliq organlari ham rasmiy veb-saytlar va avtomatlashtirilgan axborot tizimlariga ega. Raqamlashtirish soliq organlariga soliq to'lovchilar uchun elektron hisobotlarni shakllantirish va taqdim etish imkoniyatlarini yaratish, elektron xizmatlar ko'rsatish, shuningdek, ularning bojxona operatsiyalari va xo'jalik faoliyati ustidan samarali nazorat olib borish imkonini beradi. Mazkur jarayonlar soliq ma'murchiligini takomillashtirish, qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va undirish mexanizmlarining shaffofligini oshirish hamda soliq nazoratining samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: qo'shilgan qiymat solig'i, nol stavka, rivojlangan mamlakatlar, xorijiy tajriba, qo'shilgan qiymat zanjiri, qo'shilgan qiymat solig'i zanjiri, import, eksport, soliqlar, davlat budjeti, raqamlashtirish, soliq ma'murchiligi.

Аннотация: Деятельность правительств из года в год становится все более цифровизированной, а масштабы предоставления электронных услуг в системе государственного управления последовательно расширяются. В настоящее время практически все государственные органы, включая налоговые органы, располагают официальными веб-сайтами и автоматизированными информационными системами. Цифровизация позволяет налоговым органам создавать условия для формирования и представления налогоплательщиками электронной отчетности, предоставлять электронные услуги, а также осуществлять эффективный контроль за их таможенными операциями и хозяйственной деятельностью. Данные процессы имеют важное значение для совершенствования налогового администрирования, повышения прозрачности механизмов исчисления и взимания налога на добавленную стоимость, а также обеспечения эффективности налогового контроля.

Ключевые слова: налог на добавленную стоимость, нулевая ставка, развитые страны, зарубежный опыт, цепочка добавленной стоимости, цепочка налога на добавленную стоимость, импорт, экспорт, налоги, государственный бюджет, цифровизация, налоговое администрирование.

Abstract: Government activities are becoming increasingly digitalized year by year, while the scope of electronic services within public administration continues to expand. Currently, almost all government institutions, including tax authorities, operate official websites and automated information systems. Digitalization enables tax authorities to facilitate the preparation and submission of electronic tax returns, provide electronic services, and effectively monitor taxpayers' customs operations and economic activities. These processes play an important role in improving tax administration, enhancing the transparency of mechanisms for calculating and collecting value-added tax, and increasing the effectiveness of tax control.

Keywords: value-added tax, zero rate, developed countries, international experience, value-added chain, value-added tax chain, import, export, taxes, state budget, digitalization, tax administration.

KIRISH

Soliq munosabatlari moliyaviy munosabatlarning eng muhim tarkibiy qismi hisoblansa-da, ular to'g'ri va egri soliqlarga xos bo'lgan o'ziga xos jihatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Bu holat tadqiqotning ushbu qismida izlanish mantiqini quyidagi ketma-ketlikda oldindan belgilashga imkon beradi:

- konseptual apparatni tartibga solish maqsadida soliqqa tortish nazariyalari asosida "egri soliqqa tortish" va "egri soliqlar" tushunchalarining muhim mazmuniga oid muallif pozitsiyasini aniqlash;
- egri soliqlarning funksiyalarini, ularning soliq tizimidagi roli va o'rnini farqlovchi tasniflash belgilaridan kelib chiqib belgilash;
- zamonaviy soliq islohotlari sharoitida egri soliqlarning amal qilish tamoyillarini oydinlashtirish;
- egri soliqlar tizimida QQSning o'rnini aniqlash.

Soliqlarni to'lash manbalari — bu soliqlarning asosiy mezon belgilaridan biridir. Soliqlarning birinchi tasnifi soliqlarning "o'tkazish imkoniyati" mezonini asosida qurilgan bo'lib, u dastlab XVII-asrda yer egasining



daromadiga bog'liq edi (yer solig'i to'g'ridan-to'g'ri soliq, qolganlari esa egri soliqlar edi).

Keyinchalik A. Smit ishlab chiqarish omillariga (yer, mehnat, kapital) asoslanib, yer egasining daromadini kapital va mehnatdan olinadigan daromadlar hamda shunga mos ravishda ikkita to'g'ridan-to'g'ri soliq — kapital egasining tadbirkorlik foydasiga solinadigan soliq va xodimning ish haqiga solinadigan soliq bilan to'ldirdi. Egri soliqlar, A. Smitning fikricha, xarajatlar bilan bog'liq bo'lgan va iste'molchiga o'tkaziladigan soliqlardir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq siyosatining investitsion faollikka ta'siri masalasi bo'yicha ko'plab iqtisodchi olimlar o'z qarashlarini bildirganlar. Quyida mazkur masalaga oid ayrim tadqiqotchilarning fikrlari keltirilgan.

Mualliflarning mavzuga oid fikrlari: Adam Smith — soliqlar adolatli, aniq va iqtisodiyotga ortiqcha yuk bo'lmasligi kerak. Soliq tizimi investitsiya va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashi lozim. David Ricardo — maqbul soliq siyosati kapital jamg'arilishi va investitsiyalarni rag'batlantirishga xizmat qilishi mumkin. John Maynard Keynes — soliq imtiyozlari investitsiyalarni rag'batlantirishi mumkin. Joseph E. Stiglitz — soliq siyosati iqtisodiy samaradorlik va investitsion muhitga ta'sir qiladi. Vito Tanzi — soliq ma'murchiligi investitsiyalar uchun soliq stavkalaridan kam bo'lmagan darajada muhim. Abdug'ani Vahobov — soliq tizimining barqarorligi, adolatliligi va iqtisodiy rag'batlantiruvchi xususiyati tadbirkorlikni rivojlantirish hamda investitsiyalarni jalb etishda hal qiluvchi omillardan biridir. Abdusalom Jo'rayev — soliq imtiyozlari va preferensiyalar investitsion faollikni rag'batlantirishda samarali iqtisodiy mexanizm hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, samarali soliq siyosati investitsion faollikni oshirishda muhim o'rin tutadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ushbu maqolada tadqiqot jarayonida to'plangan adabiyotlardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, qiyosiy taqqoslash va jamlash kabi usullardan foydalanildi. Mazkur usullar tadqiqot mavzusini aniqroq ochib berishga xizmat qildi, maqola matnini tayyorlash jarayonida esa yordamchi vosita sifatida sun'iy intellekt texnologiyalaridan 10 foizgacha foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

QQS egri soliq hisoblanadi. Bu esa egri soliq sifatida mahsulotlar narxining oshishiga ta'sir ko'rsatadi. Tovar va xizmatlar narxining ko'tarilishi iste'molchilarning xarid qobiliyatiga ta'sir etishi mumkin. Chunonchi, egri soliqlarning haqiqiy to'lovchilari oxirgi iste'molchilar hisoblanadi. O'zbekistonda egri soliqlar sifatida QQS, aksiz solig'i, bojxona bojlari va boshqalarni misol keltirish mumkin. QQS ishlab chiqarishning har bir bosqichida yaratilayotgan qiymatga (ya'ni, mahsulot, ish va xizmatlar qiymatiga) nisbatan undiriladi hamda korxona va tashkilotlar vositachiligida budjet daromadlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

QQSning asosiy vazifasi va ahamiyatli tomoni budjet daromadlarini shakllantirish, ya'ni fiskal funksiyasini bajarishga xizmat qilishidir. Soddaroq qilib aytganda, uning vazifasi budjet daromadlarining barqaror shakllanishini ta'minlashdan, korxonalarni respublika uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishdan iborat. Bu soliqdan iqtisodiy va ijtimoiy funktsiya sifatida foydalanish imkoniyatlari muayyan xususiyatlarga ega. Umuman, egri soliqlar davlat xarajatlarini mablag' bilan ta'minlash va budjet daromadlarining barqarorligini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi.

Har qanday buyum, narsa va voqelikni chuqur bilish uchun uning mohiyatini chuqur tushunib yetish zarur. QQSning ham boshqa soliqlar kabi mohiyati soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalashda o'z aksini topadi. Shunday ekan, QQSning mohiyatini shakllantirishda uni qat'iy, doimiy takrorlanib turadigan munosabat sifatida tushunishimiz lozim (1-rasm).

1-rasm. QQS funksiyalari¹

QQSning uzluksizligi uning iqtisodiy kategoriya sifatida namoyon bo'lishi bilan bog'liq, shu bois QQSni qiymat kategoriyasi orqali ifodalash o'rinni².

Shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, har qanday iqtisodiy kategoriya, avvalo, qiymat kategoriyasi sifatida shakllanadi, so'ng bunday voqelik harakati iqtisodiy munosabatlarda o'z ifodasini topadi. QQS esa bundan istisno emas.

Shunday qilib, QQS iqtisodiy kategoriya sifatida yaratilgan jami ijtimoiy mahsulotning bir qismi bo'lib hisoblanadi. U mehnat mahsulidir. QQSning yuzaga kelishi yaratilgan qiymatning taqsimotiga asoslanadi. Bu, o'z navbatida, moliyaviy munosabatlarda va uni harakatga keltiruvchi jarayonlarda to'liq o'z ifodasini topadi. Shu bois, QQSning yuzaga kelishi va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etishi bevosita qiymatning yaratilishi bilan bog'liqdir³ (2-rasm).

2-rasm. QQSga tortish tamoyillari⁴

QQSning yaratilishi bir vaqtning o'zida o'ziga xos, unga mos soliq munosabatlarini yuzaga keltiradi va uning takomillashtirib borilishini ta'minlaydi.

QQSning axborot bilan ta'minlash funksiyasi. Ushbu funksiya yordamida soliqlarning davlat tomonidan qanday ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni bajarishga sarflanganligi to'g'risida axborot berib borilishi ta'minlanadi.

QQSga xos tamoyillarning har biri o'ziga xos vazifalarga ega (2-rasm).

QQSning yetarlilik tamoyili. Soliqqa tortish darajasi xalq xo'jaligi samaradorligiga erishishni kafolatlay

1 O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan muallif tomonidan tayyorlandi

3 Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: "Sharq", 2009. 56-bet

4 O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan muallif tomonidan tayyorlandi



olishi zarur. Mazkur tamoyilga amal qilinishi iqtisodiyot, ijtimoiy himoya, mudofaa qobiliyati va boshqa sohalaridagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarning yig'ilishini ta'minlaydi.

QQSning tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish tamoyili. QQS xo'jalik yurituvchi subyektlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalar sotib olish uchun mablag' yo'naltirish, texnologiyalarni takomillashtirish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga rag'batlantirishi zarur.

QQSga tortishning adolatlilik tamoyili. QQS va soliqlarning ushbu turi bo'yicha belgilangan imtiyozlar jamiyat tomonidan adolatli deb tan olingan umumiy obyektiv qoidalarga binoan belgilanishi lozim.


Qo'shilgan qiymat solig'ining oddiylik va xolislik tamoyili. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliqqa tortish bazasini aniqlashda va soliqlarni hisoblab chiqishda oddiylik bo'lishi, taqdim etiladigan hisobotlarning mazmunini soddalashtirish hamda yagona stavkalarni belgilash ko'zda tutiladi.

QQSning boshqarishga qulaylik tamoyili. QQSni undirib olishda samaradorlikka erishish masalasi ko'p hollarda soliqlarning soliq to'lovchilarga yaxshi tushunarli bo'lishiga bog'liq.

QQS majburiy tartibda Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan va huquqiy qonunlar bilan ta'minlangan. Shunday ekan, QQSni to'lash, soliq obyektini to'g'ri aks ettirish va soliq majburiyatlarini belgilangan tartibda bajarish yuridik shaxslarning muhim majburiyatlaridan hisoblanadi. QQSni to'lash xo'jalik subyekti bilan davlat o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarning iqtisodiyotni liberallashtirish davridagi asosiy shakli, daromadlarning bir qismini xo'jalik subyektlari bilan davlat o'rtasida taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi.

Demak, QQS — bu iqtisodiy qiymat kategoriyasi bo'lib, ma'lum bir iqtisodiy munosabatni o'zida shakllantiradi. Bunday iqtisodiy munosabat qiymat harakati bilan o'z ifodasini topadi.[5] Avvalo, QQS — bu jami ijtimoiy mahsulotning bir qismi bo'lib hisoblanadi.

Uning iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyati nihoyatda katta bo'lib, budjetni mustahkamlash manbai sifatida xizmat qiladi. Aylanma solig'i asosan davlat belgilagan baholar asosida hisoblanar edi. Korxona va tashkilotlarga o'z tovar va xizmatlariga baholarni mustaqil belgilash huquqining berilishi mazkur tizimni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Natijada aylanma solig'i tubdan o'zgartirilib, QQS mustaqil respublikamizning soliq tizimiga kirib keldi (3-rasm).



3-rasm. QQS to'lovchilar⁵

QQS ko'pgina mamlakatlarda, shu jumladan, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. U savdoda soliqqa tortishning samarali choralaridan biri sifatida e'tirof etib kelinmoqda.⁶

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, QQS to'lovchilari jami ro'yxatdan o'tgan soliq to'lovchilarga nisbatan muayyan ulushga ega. Shu bilan birga, 2019-yilga nisbatan QQS to'lovchilari soni qariyb 7 baravar oshganligini

⁵ Майбуров И. и другие. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2008. С. 111

⁶ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan muallif tomonidan tayyorlandi



ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

Sirdaryo viloyati Guliston shahri bo'yicha QQS to'lovchilari to'g'risida ma'lumot⁷

Soliq to'lovchilar	2022-yil yakuni holatiga ko'ra		2023-yil yakuni holatiga ko'ra		2024-yil yakuni holatiga ko'ra		2025-yil yakuni holatiga ko'ra	
	soni	foiz	soni	foiz	soni	foiz	soni	Foiz
Jami ro'yxatdan o'tgan soliq to'lovchilar	6841	100	8355	100	9734	100	11347	100
Shundan, QQS to'lovchilar	342	4.9	1452	17.5	1745	17,9	2134	18,8

QQSning soliq solish obyekti tadbirkorlik subyektlarining tovarlarni realizatsiya qilish, ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish aylanmalari hamda respublika hududiga amalga oshirilgan import aylanmasi bilan belgilanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qurilish korxonalari tomonidan yangi qurilgan uy-joylarni, bino va inshootlarni jismoniy shaxslarga sotish shartnomalarini notarial idoralarda rasmiylashtirish bilan bir vaqtda elektron hisobvaraq-fakturani avtomatlashtirilgan rejimda shakllantirishni joriy etish, bu orqali iqtisodiy faoliyatning shaffofligini yanada oshirish va hisob-kitoblarning to'liq aks ettirilishini ta'minlash.

Bugungi kunda QQS hisobotini shakllantirish Soliq qo'mitasi tomonidan avtomatlashtirilgan bo'lib, hisobotning 1-ilovasi 0105-satrini to'ldirish jarayonini ham avtomatlashtirish maqsadga muvofiq. Bu, o'z navbatida, soliq to'lovchilar tomonidan buxgalteriya hujjatlarida aks ettiriladigan boshqa daromadlarni to'liq va aniq shakllantirish imkonini beradi. Iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish, sun'iy qarzdorlik yuzaga kelishining oldini olish maqsadida QQS hisobotining 1-ilovasi 0105-satrini avtomatlashtirish zarur.

Import tovarlari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasini 12-oyga bo'lib yoki realizatsiya amalga oshirilgan qismiga mos ravishda hisobga olishni yo'lga qo'yish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduvohidov A. A., Burxanov A. X., Urazmatov J. M. O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirish imkoniyatlari va istiqbollari : monografiya. — T.: Mumtoz so'z, 2020. — 147 b.
2. Abduvohidov A. A., Burxanov A. X., Urazmatov J. M. Widespread introduction of market mechanisms in developing cooperative relations in agriculture in Uzbekistan // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. — 2020. — 17-mart. — B. 1612–1620.
3. Abduvohidov A. A., Muxametov A. B., Urazmatov J. M. Korxonalarda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobining soliq jihatlari // Iqtisodiyotda innovatsiyalar : elektron jurnal. — 2020. — № 4. — B. 21.
4. Abduvohidov A. A., Burxanov A. X., Urazmatov J. M. Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning Qozog'iston tajribasi // Iqtisodiyot va ta'lim. — 2020. — № 2. — B. 158.
5. Amanov A. M., Urazmatov J. M. К пути создания эффективного механизма налогообложения добавленной стоимости // "Raqqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyot va ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish: nazariya va amaliyot" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — 2021. — 15-aprel. — B. 889.

7 O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan muallif tomonidan tayyorlandi

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100